

Date: 25thOctober-2024

**NEMIS TILI DARSIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR UCHUN
O'YINLI METODLAR**

Qo'ziboyeva Ma'mura Ikramevna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 39-son maktabi

Nemis tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Keltirilgan ushbu maqolada nemis tili darsligi, dars jarayonida turli xil zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'qituvchi va o'quvchilar uchun ham o'yinli metodlarning ahamiyati kabilar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiyalar, didaktik o'yinlar, dars jarayoni, o'quvchilar xususiyatlari

Ta'limda chin ma'nodagi o'zgarishlar bo'layotgani hammamizga ma'lum. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev turmushimizning boshqa sohalari bilan birgalikda bilim berishga ham chuqur diqqat-e'tibor bilan qarayotganligi asosiy adabiyotlardagi ko'z-qarashlari, chiqarilayotgan qonunlar, qarorlar va bayonotlar orqali ham bizga ma'lum.

Birinchi prezidentimizning «Biz komil inson tarbiyasini mamlakat siyosatidan yuqori soha deb belgilaganmiz. Komil inson deganda biz eng birinchi yuksak ongli, mustaqil fikrlaydigan, xulq-odobi bilan boshqalarga o'rnak bo'la oladigan bilimli dono insonni tushunamiz»-[1,48] degan fikrlariga nazar tashlasak, kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni mamlakat manfaatiga hissa qo'shadigan insonlar sifatida tarbiyalash biz pedagog va tarbiyachilarga katta mas'uliyat yuklaydi. Hozirgi kunda har bir sohada misli ko'rilmagan darajada o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bunday o'zgarishlar va rivojlanishlarning bir turini axborot texnologiyalari desak adashmaymiz. Mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) dan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalari ta'limning ajralmas bo'lagi hisoblanib, bunda har bir pedagog eng avvalo o'zi axborot texnologiyalarini yaxshi bilishi va albatta buni dars jarayoniga to'g'ri tadbiiq eta olishi lozimdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad-aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarining paydo bo'lishidir.

Nemis tili darsi ham hozirgi kunda ommalashgan va rivojlanayotgan fanlar sirasiga kiradi. Maktablarda nemis tilining o'tilishi o'quvchilarda ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim-ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarning o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Biz bilamizki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari har bir bola bilan individual shug'ullanib, ularning xususiyatlarini birma-bir o'rganib chiqishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari ularning har biriga dars jarayonini mukammal o'rgatishga ham harakat qiladi. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularning psixologik xususiyatlarini ham o'rganib chiqishi kerak bo'ladi. Nemis tili o'qituvchilari ham kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga dars berar ekanlar, ularni o'yin orqali darsga qiziqitira oladilar, darsni samarali o'tishini ta'minlaydilar. Shu jumladan



Date: 25th October-2024

nemis tili darslarida o'qituvchilar va o'quvchilar orasida o'yinli metodlarning qo'llanilishi darsni samarali bo'lishiga, bilim sifati oshishiga, o'quvchilarda qiziqish uyg'onishiga hamda eng asosiysi yangi texnologiyalardan o'z o'rnida qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

O'yinli metodlar qatoriga biz o'quvchilarni faol turga boshlovchi „Vokal Bingo“, „Domino“, „Labyrinth“, „Pyramide“ „Aqliy hujum“, „Fikrlar hujumi“, „Tarmoqlar“, metodi „Sinkveyn“, „BBB“, „Beshinchisi ortiqcha“, „6x6x6“, „Bahs-munozara“, „Rolli o'yin“, FSMU, „Kichik guruhlarda ishlash“, „Yumolaqlangan qor“, „Zigzag“ kabi o'yinlarni, rasmi metodlar, ertak terapiyalari kabi metodlarni ham kiritishimiz mumkin. Bu kabi o'yinli metodlar o'quvchilarda faollikni oshiradi, diqqatini kuchaytiradi, til bilish qobiliyatini rovojlantiradi, miya faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, analiz-sintez qilish jarayonini ham kuchaytiradi. Dars jarayonida yuqorida ko'rsatilgan texnologiyalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Endi axborot texnologiyalaridan darsda foydalanishni misol qilib ko'rsatadigan bo'lsak, masalan, nemis tili fanlarida kompyuter, proyektor orqali o'quvchilarga mavzuni jonli videolar, rasmlar, ko'rgazmali qurollar, qo'shiqlar orqali tasvirlab ko'rsatib ular bilan jonli ravishda ish olib borilsa o'quvchilarning shu fanga bo'lgan qiziqishi ortadi, shu fanlarni mustahkam ravishda o'zlashtirib oladi va albatta ta'lim jarayonining samaradorligi ham ortishini ta'minlagan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, axborot texnologiyalari, o'yinli metodlar hozirgi kunda eng ilg'or texnologiyalar hisoblanadi. Bunda har bir sohada har bir inson faol bo'lishini taqozo etadi. Shu jumladan, biz boshlang'ich sinflarga darsni samarali o'tish, unda axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanish hamda ularning ahamiyati va samaradorlikni oshirishdagi rolini ham ko'rsatib berishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“ gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plam. 2013 yil. 41- son.
2. Mirziyoev Sh.M. „Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tatimiz“. Toshkent – „O'zbekiston“, 2017.
3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси „Адабиёт жамғармаси“ нашриёти, 2006. – 159б.

